

YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA JAMIYATDA O'QITUVCHILARNING ROLI VA AHAMYATI

Jalilova Xulkar Turayevna

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada hozirgi kunda yangilanayotgan O'zbekistonda ta'lif tizimini oshirishda asosiy e'tibor o'qituvchining nufuzini oshirish, borasidagi fikrlar o'tmishdan hozirgi kungacha bo'lgan davrlar bilan qiyoslanib tushuntirilgan. Chet el tajribasi qaysi mamlakatlardan tajriba o'rghanish kerakligi haqidagi mulohazalar mavjud. Yurtimizda uchunchi renessans davrida yangi nafas olib kiruvchi insonlar faqat va faqat o'qituvchilar ekani IX-XII hamda XV asrlardagi Sharq uyg'onish davridan boshlab ilm-fanga ustoz shogird an'anasiga muofiqligi hammaga ayon va buni qayta tiklash darkor. Hozirgi globallashuv zamoni shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lif tizimini va sifatini yaxshilamasdan turib ko'zlangan natijaga erishib bo'lmaydi.

Kalit so'zlar. «Ustoz-shogird», Renessans, Suqrot, Russo, Ushinskiy, Platon, o'qituvchi maqomi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье основной акцент на совершенствовании системы образования в Узбекистане, которая в настоящее время обновляется, объясняется путем сравнения взглядов прошлого с настоящим. Есть мнения о том, каким странам следует перенимать зарубежный опыт. Люди, которые вдохнут новую жизнь в нашу страну в период третьего ренессанса, являются всего лишь учителями. Непоследовательность очевидна и ее полезно восстановить. Нынешняя эпоха глобализации показывает, что желаемого результата невозможно достичь без улучшения системы образования и его качества.

Ключевые слова. «Учитель-ученик», Ренессанс, Сократ, Руссо, Ушинский, Платон, статус учителя.

ABSTRACT

In this article, the main focus on improving the education system in Uzbekistan, which is currently being renewed, is explained by comparing the views from the past to the present. There are opinions about which countries should learn from foreign experience. The people who breathe new life into our country in the third renaissance period are only teachers. The inconsistency is obvious and it is useful to restore it. The current era of globalization shows that the desired result cannot be achieved without improving the education system and its quality.

Keywords. "Master-disciple", Renaissance, Socrates, Rousseau, Ushinsky, Plato, teacher status.

KIRISH

Insoniyat tarixi ta'lif tizimidagi vorisiylik an'analari asosida takomillashib bormoqda. Bu evolyusion jarayonda «Ustoz-shogird» munosabatlari ham mazmunan, ham shaklan tabiiy tanlanish natijasida namoyon bo'ladi. Chunki mutatsiya va tabiiy tanlanish evolyusiyaning eng asosiy omili hisoblanadi. Bu omillarning birgalikdagi ta'siri evolyusiya jarayoni amalga oshirilishining asosiy sharti hisoblanadi. Tabiiy tanlanish bevosita organizmlar fenotipiga ta'sir etadi. Natijada ayrim genlar yoki allellar emas, balki muayyan reaksiya meyoriga ega bo'lgan bir butun genotiplar tanlanadi. Genetik jihatdan evolyusiya populyatsiya genofondining muayyan yo'nalishida o'zgarishi (mikroevolyusiya)dan iborat. Tashqi muhit sharoiti o'zgarishi xususiyatiga qarab populyatsiyaga harakatlantiruvchi, turg'unlashtiruvchi yoki disruptiv tanlanish ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tanlanish tur individlari ontogenezining hamma davrida ham ta'sir etishi mumkin, filogenetika esa ontogenezning genetik qatorlaridan iborat bo'ladi. Asosan, makroevolyusiyada turdan yuqori guruhlar ichida kechadigan evolyusion jarayonlar namoyon bo'lib, unda filogenezning umumiy qonuniyat va yo'nalishlari aks etadi. Organizmlar muayyan guruhlari evolyusion o'zgarishlarining yo'nalishlari tabiiy tanlanish bilan bir qatorda muayyan turning tuzilishi (genetik sistemasi, ontogenezi va fenotipi) xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan evolyusion cheklanish va taqiqlar orqali ham belgilanadi.

Darhaqiqat, ta'lif tizimi taraqqiyoti davomida Sharq va G'arb davlatlarida intellektual salohiyatning o'sishi o'ziga xos ravishda rivojlandi. Bu jarayon Qadimgi Hindistonda braxman va gurular, Xitoyda Konfusiy, Yunonistonda Suqrot maktabi, Platon akademiyasi, Aristotel litseyi, o'rta asrlar Sharqida Bag'dod Ma'mun akademiyasi yoki Xorazm Ma'mun akademiyasida ta'lif tizimining yangi ilg'or an'analarini shakllantirdi. «Ustoz-shogird» munosabatlarining o'lmas qadriyatlarini asrlar davomida shogirdlar tomonidan e'zozlanishini Suqrot va uning shogirdlari timsolida tahlil etishimiz mumkin. Uning «Kuch – bilimda», «Qanchalik ko'p bilsam, shunchalik ko'p bilmasligimni bildim», «O'z-o'zingni angla» aforizmlari bugungi kunda ham o'ta dolzarb. Suqrotchilar maktablari er.av.V asrda uning shogird va izdoshlari tomonidan shakllantirilgan yunon falsafiy maktablari: Platon akademiyasi, Megar maktabi, Elida-eretreya maktabi, Keren maktabi va kiniklar oqimi shular jumlasidandir.

Ustozga hurmat va ehtirom oliy qadriyat sifatida Platon asarlarida yorqin ifoda etiladi. Uning «Suqrotchilar dialogi»da alloma ustoz qarashlarini haqqoniy aks ettirishga, g'oyalarini tizimli va mufassal targ'ib qilishga harakat qiladi [1;196]. O'zi tashkil etgan akademiyada qariyb qirq yil davomida rahbarlik qilar ekan, ustoz qarashlari targ'ibotini ham muttasil olib boradi. Platon akademiyasining 900 yildan ortiqroq faoliyati davomida bu an'ana saqlanib qolganligi bejizga Suqrot butun insoniyatning ma'naviy ustoziga aylanmaganligini ko'rsatadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

IX-XII hamda XV asrlar insoniyat tarixida Sharq Uyg'onish davri sifatida e'tirof etiladi. Bu davrda mamlakatimiz hududlarida yashab ijod etgan olimlarning ilmiy tadqiqotlari Bag'dod, Marv va Xorazmdagi ilmiy-ma'rifiy markazlarda olib borildi. O'rta asrlarda tashkil etilgan ilmiy maktablarda dunyoviy va diniy fanlar rivojiga vatandoshlarimiz ulkan hissa qo'shdilar. Natijada «ustoz-shogird» an'analarining davomiyligi asosida mazkur ilmiy maktablarda buxoriylar, farg'oniyalar, xorazmiylar, termiziylar, samarqandiylar avlodni ulkan ilmiy yangiliklari bilan insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirdi. Mana shunday ajdodlarimizning o'ziga xos qadriyatlari asosida nima muhim o'rin egallagan?

Mamlakatimizda akademik fan vakillarining sermashaqqat ilmiy-ijodiy mehnatini rag'batlantirish va ularga ehtirom ko'rsatish maqsadida Prezident farmoni qabul qilindi [2;]. Natijada, mamlakatimizda ustozlarga, ilmiy maktablar faoliyatiga ehtiyoj yuqoriligi yanada oydinlashdi. Akademik Edvard Rteladze 2016 yil 30 dekabrda davlatimiz rahbarining akademiklar, ilm-fan namoyondalari bilan uchrashuvida qo'yilgan masalalardan biri haqida: «Ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, yosh ilmiy kadrlar, yuksak malakali mutaxassislarini tarbiyalab yetishtirish, respublikamizda yuqori salohiyatga ega bo'lgan jahon miqyosida e'tirof etilgan olimlarning ilmiy maktablarini yaratish zarur. Hozirgi paytda akademiyadagi akademiklarning eng yoshi 60 yoshdan oshganligini e'tiborga olsak, ilm sohasida «Ustoz-shogirdlik» an'analarini nihoyatda kerak ekanligi ma'lum bo'ladi», deb ta'kidlaydi[3;].

XXI asr insoniyat uchun shiddatkor taraqqiyot eshiklarini ochdi. O'z vatani va kelajak avlodining taqdiri uchun mas'uliyatni teran his etgan har bir jamiyat vakillari yoshlardagi ilm-u ma'rifat darajasini oshirishi zarurligi ko'rinish qoldi. Jahonda qaror topayotgan yangi – bilimga asoslangan iqtisodiyotga o'tish jarayonlarida hal qiluvchi rolni intellektual kapital o'ynay boshladi. Mamlakatning qay darajada rivojlanganligi uning ayni vaqtda ilmiy tadqiqot va rivojlantirish ishlari (Research and Development, R&D) uchun qancha mablag' ajratishiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq hisoblanadi.

Butun dunyo bo'yicha ushbu yo'nalishda eng ko'p mablag' sarflaydigan davlatlar Janubiy Koreya va Isroil hisoblanadi. Ushbu davlatlar YAIM ning 4,5% ini aynan ilmiy tadqiqot ishlari uchun sarflaydi. Mablag' tomondan qaralganda AQSH va Xitoy ham ilmiy tadqiqot uchun eng ko'p pul sarflaydigan davlatlar hisoblanadi. Masalan, 2020 yilda Xitoy ilm-fan sohasi uchun 378 mlrd. AQSH dollari (YAIMning 2,4% ni) pul ajratgan.

G.D.Litsman zamonaviy o'qituvchining professional-malakaviy o'sishi, bu bevosita ilmiy tadqiqotchilik faoliyati bilan birlashtirilgan olib boriladi, rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi bevosita tadqiqotchi o'qituvchi timsolida shakllanmoqda[4;212], deb ta'kidlaydi.

Suqrotning asosiy didaktik yutug'i – ustoz tomonidan o'ylab qo'yilgan savollar yordamida haqiqatga eltuvchi mayevtika dialogik tortishuv. Ustoz o'quvchi (shogird)ning kuchli ruhiy jihatlarini uyg'otishi va uning «o'zini yaratib olishi»ga ko'maklashishi kerak.

Platonning fikricha, ustozlik vazifasini, eng avvalo, yoshi katta kishilarga ishonish mumkin. Bu borada J.J.Russoning fikri ham juda qiziq: u ustozning eng asosiy va qiyin san'ati – o'quvchi (shogird) bilan hech narsa qilmaslikni bilishdir, deb ta'kidlagan.

XX asr boshlarida ustozlik muammolari haqida K.D.Ushinskiy ham o'z fikrlarini bayon etgan. U tajribalilik bilan maqtanmaslik, o'z tarbiyaviy faoliyati yillarini sanab g'ururlanmaslik kerakligini ta'kidlab, kasbiy tajriba nazariy tayyorgarlik yo'qligini qoplab yuboradi, degan xato fikrga bormaslikni maslahat beradi.

Sharq xalqlarining yozma yodgorliklari «Panchatantra», «Kalila va Dimna»[5;260], «Avesto» kitoblarida, Konfusiy «Hikmatlari»da, Abu Homid G'azzoliyning «Ilm kitobi» asarida, Husayn Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomai sultonija» asarida «Ustoz-shogird» munosabatlarining sharqona qadriyatlarini ifodalangan. Zamonaviy biznes faoliyati bilan bog'liq munosabatlar Jim Ronning «Aql vitaminlari»[6;383], Robert Kiosakining "Boy ota, kambag'al ota" asarida, zamonaviy o'zbek milliy qadriyatlarini va ta'lim tizimi faoliyatidagi «Ustoz-shogird» an'analarini Tohir Malik, Ozod Sharofiddinov, Saydi Umurov, Said Shermuhammedov, Erkin Vohidov kabi mutafakkirlarimiz asarlarida uchratamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yilgi Parlamentga Murojaatida "nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyatni rivojlanтиrish"ga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda o'qituvchining pedagogik mahorati, ilg'or tajribalari muhim ahamiyatga ega. Chunki

o‘qituvchi ilm-ma’rifatli kadrlar tayyorlash, o‘quvchilarni turli sohalarga yo‘naltirish, uzluksiz ta’lim jarayonlarida islohotlarni amalga oshirish, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalash, xorijdagi ilg‘or tajribalarni chuqur o‘rganish, ta’lim jarayonini yangilash, o‘qitish metodikasi, shakl va metodlarini qo‘llashda ilm-ma’rifatga asoslanish kabilarni amalga oshirishga mas’ul shaxs hisoblanadi. Shu jihatdan Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi. Sharq donishmandlari aytganidek “Eng katta boylik — bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros — bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik — bu bilimsizlikdir”. Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak. Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi”.

Faylasuf olima SH.Qahhorova traditsionalizm va evolyusionizm mohiyatini tahlil qiladi. «XX asrga kelib ko‘pchilik olimlar misolida ma’naviyatdagi bu ajralishlar, ayniqsa, falsafadagi differensiallashuv ijobiy emas, balki o‘ta salbiy hodisa ekanini anglab yetila boshlandi. Chindan ham insoniyat ma’naviyatida parchalanish va qotib qolish (dogmalashuv) jarayonining tobora kuchayib borishi o‘ta xatarli... G‘arb madaniyatida jamiyat hayotiga tobora taraqqiyot etuvchi jarayon sifatida sayoz evolyusionistik qarash hukm surib kelayotgan edi. Fan va texnika taraqqiyoti hamda unga asoslangan moddiy farovonlik bu taraqqiyotni mutlaq, ijobiy va bepoyon degan xulosaga olib kelgan edi... Bu sayoz evolyusionizm konsepsiyasiga qarama-qarshi turadigan va umumjahon dirlari muqaddas kitoblarining esxatologik mazmuniga tayangan asl ezoterik (nosxolastik) traditsionalistik yondashuvlar global muammolarni kengroq, teranroq va konkretroq tushunishga va tegishli xulosalar chiqarishimizga yordam bera oladi»[7;411]. Bu integrallashuv bugungi kunda ustoz-shogird munosabatlaridagi traditsionalizmdan uzoqlashuv ilm-fanda katta jarlikni hosil qildi. Endilikda xususiy fanlarda differensiallashuvga qarama-qarshi bo‘lgan integrallashuv jarayoni boshlangan. Barcha dunyoqarash shakllarining diniy, falsafiy va ilmiy bilimlarning integrallashuvi natijasida yaxlit hamda dunyoqarashning shakllanishi va ommalashuvi hozirgi davr sivilizatsiyasini global inqirozdan qutqara oladi.

Har bir millatning boy tarixi, shon-shavkati, betakror ma’naviy merosi, umuman olganda, qahramonlarning dunyoga kelishi ustozlarning mehnati samarasi sanaladi. Shu sababdan, kasbni egallashda, albatta, ustozlar ko‘magida ular tajribalari, tavsiyalarini o‘zlashtirish shogirdlar burchidir. Bejizga xalqimiz:«Ustoz ko‘rmagan shogird har maqomga yo‘rg‘alar», demaydi.

Bugungi kunda Hasan Basriyning «Olimlar bo‘limganda odamlar hayvonlardek bo‘lib qolishardi», «Olimlar yulduzlarga o‘xshaydi. Agar ko‘rinib tursa, odamlar ular yordami bilan o‘zlariga yo‘l topishadi. Agar ular ko‘zdan yo‘qolib, o‘zlar zulmatda qolishsa, qayoqqa yurishni bilmay hayron qolishadi»,[8;73] degan fikri juda ahamiyatlidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda O‘zbekistonda o‘qituvchilarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash, ta’lim muassasalari faoliyatini boshqarish va tashkil etishning maxsus tizimini yaratish, maktablarda ishlay oladigan yoshlarni aniqlash, tanlash, o‘qitish va tarbiyalash kabi masalalar davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Oliy ta’lim muassasalari faoliyatiga innovatsiyalar asosida ilg‘or ta’lim shakllari, pedagogik texnologiyalarni joriy etish, xalqaro tashkilotlar va ekspertlarni jalb qilgan holda ijodiy faoliyatga ega bo‘lgan pedagogik kadrlarni tayyorlash mexanizmlari joriy etilgan. Har bir o‘qituvchi o‘z ishiga ma’suliyatli, ziyrak, hushyor, ertani ko‘ra biladigan, o‘quvchilar kayfiyatini tez payqaydigan va shunga mos ravishda ishlaydigan bo‘lishi kerak. Aks holda u o‘quvchilar e’tiboridan chetda qoladi. O‘z obro‘sini yo‘qotadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘qituvchining pedagogik mahorati, irodasi o‘ziga xush yoqadigan biror narsani qilayotganda emas, balki birorta og‘irroq, kutilmagan, sezilarli zo‘r berishni talab qiladigan vazifani bajarayotganda namoyon bo‘ladi. U bu ishning katta jamoa va butun Vatanimiz uchun zarurligi va foydaliligiga ishonganligi uchun samimiy munosabat, iroda va kasbga bo‘lgan ma’suliyat bilan amalga oshiradi.

O‘qituvchi o‘z faoliyatida ijtimoiy va iqtisodiy saviyasini tinimsiz shakllantirib borishi, vijdongan, sidqidildan mehnat qilishi, malaka va ko‘nikmalarini tinimsiz oshirib borishi, pedagogik mahoratini yuksaltirishi, jamoa o‘rtasida katta hurmatga loyiq bo‘lishi kabi masalalar jamiyat taraqqiyotining ko‘zgusiga aylanib bormoqda. Bu borada Chirchiq davlat pedagogika institutida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash sohasida olib borilayotgan ishlar diqqatga sazovordir. Institut professor-o‘qituvchilari innovatsion ta’lim klasteri yo‘nalishida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish bilan birga, bo‘lajak o‘qituvchilarda mustaqillik, ijodiylik, qat’iylik, vazminlik, o‘zini qo‘lga ola bilish, intizomlilik, o‘zini-o‘zi boshqarish, o‘z kuchiga ishonish mahoratini rivojlantirish metodikasiga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni takomillashtirishda ustozlik vazifasini amalga oshirmoqdalar.

O‘qituvchi o‘zining faoliyatida malakali va tajribali, chuqr bilimga ega, davlat tili va chet tillarni, zamnaviy pedagogik texnologiyalarni va o‘qitishning innovatsion uslublarini bilishi, klaster metodi asosida boshqa tashkilotlar, yirik

kompaniya va birlashmalar bilan aloqada bo‘lishi, o‘qitishning innovatsion shakl va uslublarini joriy qilgan holda ta’lim mazmunini takomillashtirishi, milliy va jahon adabiyoti, musiqa, kino, haykaltaroshlik, amaliy san’at va boshqa ijodiy yo‘nalishlardagi bilimlarga ega bo‘lishi, o‘quv jarayonida ta’limning ilg‘or shakllari, pedagogik texnologiyalar va axborot yangiliklarini joriy etish maqsadida xorijiy ta’lim tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi, zamonaviy talablarni hisobga olgan holda ijodiy tanlovlар, test va boshqa sinovlar asosida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini, ijodiy iste’dodini rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar olib borishi kabilar ta’lim-tarbiya samaradorligini oshiradi

REFERENCES

1. Қаҳхорова Ш. Глобал маънавият – глобаллашувнинг ғоявий асоси. – Тошкент: Tafakkur, 2009. – Б. 411.
2. Аҳмад Муҳаммад Турсун. Ҳасан Басрий.- Тошкент: Qaqnus media, 2019.– Б. 95,
3. РонЖ. Ақл витаминлари.-Тошкент: FUTURE-BOOKS, 2021. -383 б.
4. Назаров К. Жаҳон фалсафаси қомуси. 2-том. – Тошкент: Маънавият, 2019. – Б. 196.
5. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования // – М.: Academia, 1999. – 783 с.
6. Лицман Г.Д. Научно-исследовательская деятельность как средство профессионально-квалификационного роста учителя. - Дисс. ... док. пед. наук.- Екатеринбург, 2002. -212 с.
7. Safarov.M.K. Inson tabiatida ehtirosni tuta bilish borasidagi mushohadalarning Ar-Roziy asarlaridagi tahlili// Qar DU xabarlari//2023№3/2(59).-B.125-130.
8. Калила ва Димна. -Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. -260 б.
9. Кудратова У.Р. Масофавий таълим – пандемия шароитида таълимни ташкил этишнинг муҳим воситаси // O’ZMU xabarlari // Ижтимоий-гуманитар йўналиши. – Тошкент, 2021. № 1\3\1. - Б. 111-113.